


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 7 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 7 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 7

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 7



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№7 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-7>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. **Mo‘minjon Salayev Atabayevich**
BAQTRIYA HUJJATLARIDAGI TURKIY ISMLAR VA ULARNING TARIXIY TALQINI.....7
2. **Tilovboyeva Mardona Aybekovna**
O‘RTA OSIYODA TOSH DAVRINING ILK BOSQICHI XUSUSIYATLARI.....19
3. **Акрамова Ф.А.**
СОЦИАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ЖЕНЩИН-РАБОТНИЦ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (1946-1960 ГГ.).....22
4. **Файзуллаев Мансур Хайруллаевич**
СПЕЦИАЛИЗАЦИЯ КАРАКУЛЕВОДСТВА В ЖИВОТНОВОДЧЕСКИХ КОМПЛЕКСАХ ЮЖНОГО УЗБЕКИСТАНА И ЕЁ СИСТЕМНЫЕ ПРОБЛЕМЫ (1960-1980 ГГ.).....30
5. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
QO‘NG‘IROTTLAR SULOLASI DAVRIDA XIVA XONLIGINING TASHQI SIYOSIY ALOQALARI: SHAKLLANISHI, YO‘NALISHLARI VA TARIXIY AHAMIYATI.....37
6. **Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich**
XVIII-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGINING ERON VA ROSSIYA BILAN DIPLOMATIK VA IJTIMOIIY-SIYOSIY MUNOSABATLARI.....47
7. **Matniyozov Sarvarbek Sanatbek o‘g‘li**
“XORAZM OKRUGIDA YIRIK MEHNATSIZ XO‘JALIKLARNI TUGATISH TO‘G‘RISIDA”GI DEKRETNING TAHLILI.....56
8. **Kenjayev Hasan Atanazarovich**
XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSUR MISOLIDA.....64
9. **Қадамбаев Ш.**
ЎРТА ЗАРАФШОНДА ТОШ ДАВРИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ.....70
10. **Matkarimova Nazokat Maksudovna, Matnazarova Dilorom Radjabbaevna**
XORAZMLIKLARNING AN‘ANAVIY MADANIYATIDA OILA VA OILAVIY ETIKET.....73

IQTISOD

1. **Radjabova Mavluda Ergash Qizi**
MINTAQADA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARINING EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH XORIJ MAMLAKATLARI TAJRIBASI VA O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI.....77
2. **Хусаинов Джахонгир Баходирович, Мухаммадсолиев Миродилжон Мирзохид угли**
КАСКАДНО-ЦИКЛИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ЦЕНООБРАЗОВАНИЯ И УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ РИСКОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ПРОГРАММ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ.....84

3. Matyakubov Umidjon Raximovich, Qodirova Dilfuza Sodiqjon qizi, Kodirova Feruza Sodiqjonovna	
TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING OBYEKTIV ZARURLIGI VA AHAMIYATI: STATISTIK TAHLIL VA KONSEPTUAL MODEL ASOSIDA.....	89

FILOLOGIYA

1. Adizova Surayyo Abduxoligovna	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOGNITIV TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISH TAMOIYILLARI (TIBBIY TERMINLAR MISOLIDA).....	97
2. Shoymardanova Dilfuza Baxtiyorovna	
ERKIN VOHIDOV ASARLARIDA SINTAKTIK PARALLELIZM VA POETIK INDIVIDUALLIK.....	103
3. Khudoyshekur Makhmudov	
TOURISM DISCOURSE AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH: A COMPARATIVE LINGUISTICS PERSPECTIVE.....	107

PEDAGOGIKA

1. Sh.E.Yakubova	
“OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABA QIZLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI KOMPETENTLIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI”..	112
2. Kalandarova Madina Baxadirovna	
IJTIMOIIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING TUG'RUQDAN KEYINGI DAVRDAGI AYOLLAR HAYOT SIFATI BILAN BOG'LIQLIGI.....	116
3. Kasimova Xulkar Atabayevna	
NOGIRON FARZANDLI TURLI YOSHDAGI ONALARNING PSIXOLOGIK FAROVONLIGI VA EMOTSIONAL O'ZINI-O'ZI NAZORAT QILISH O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LANISHLAR.....	120
4. Абибуллаев Арсен Редванович	
ОСОБЕННОСТИ ВОССТАНОВИТЕЛЬНЫХ ПРОЦЕДУР СЕМИБОРОК В СТРУКТУРЕ ТРЕНИРОВОЧНОГО И СОРЕВНОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА.....	124
5. Шарипова Мадина	
ОРГАНИЗАЦИОННО-УПРАВЛЕНЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДАПТАЦИИ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА ДУАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ К СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	129
6. Pulatova Zulfiya Abduazizovna	
OLIIY HARBIY TA'LIM DA KURSANTLARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI BAHOLASH METODIKASINI HKT-INDEKSI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	136
7. Xasanboyev Javohir	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA JADID PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI.....	145

Kenjayev Hasan Atanazarovich
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

XV-XVI ASRLARDA SAROY KUTUBXONASINI BOSHQARISH AMALIYOTI: “BADOYE’ UL-VAQOE” ASARIDAGI MANSUR MISOLIDA

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21979998>

Annotatsiya: Maqolada Zayn ad-Din Mahmud Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoe” (“Ajoyib voqealar”) asarida keltirilgan Xoja Nosir al-Xattotni kutubxona saqllovchisi va boshqaruvchisi etib tayinlash haqidagi manshur tarixiy-manbashunoslik va hujjatshunoslik nuqtayi nazaridan kompleks tahlil qilinadi. Vosifiyning hayoti, ijodiy faoliyati va u yashagan davrning siyosiy-madaniy muhiti manshurning yuzaga kelish sharoitlari bilan bog‘liq holda yoritiladi. Hujjatning kompozitsion tuzilishi, tayinlovni asoslash usullari, rasmiy ish yuritish ritorikasi, barqaror formulalari va boshqaruv terminologiyasi o‘rganiladi. Kutubxona manshuri Vosifiy tomonidan tuzilgan boshqa manshur va nishonlar bilan qiyoslanib, XV–XVI asrlarda Xuroson va Movarounnahr rasmiy hujjatchiligida mavjud bo‘lgan umumiy andozalar aniqlanadi. “Darug‘a” atamasining turli kontekstlardagi semantik doirasi tahlil qilinib, kutubxona boshqaruvchisi mansabining vazifalari, huquqiy maqomi va saroy madaniy hayotidagi o‘rni baholanadi. Tadqiqot natijalari mazkur manshurning kutubxonachilik tarixi, boshqaruv madaniyati va rasmiy hujjatchilik an‘analarini o‘rganishdagi ilmiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Zayn ad-Din Mahmud Vosifiy, Badoye’ ul-vaqoe, Ajoyib voqealar, manshur, kutubxona boshqaruvi, Xoja Nosir al-Xattot, Temuriylar, Shayboniylar, Xuroson, Movarounnahr, rasmiy hujjatchilik, ish yuritish ritorikasi, darug‘a, manbashunoslik.

ПРАКТИКА УПРАВЛЕНИЯ ДВОРЦОВОЙ БИБЛИОТЕКОЙ В XV–XVI ВЕКАХ: НА ПРИМЕРЕ МАНШУРА ИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «БАДОЕ УЛ-ВАКОЕ»

Аннотация. В статье комплексно анализируется маншур о назначении ходжи Насира ал-Хаттата хранителем и управляющим библиотеки, приведённый в произведении Зайн-ад-Дина Махмуда Васифи «Бадаи ал-вакайи». Рассматриваются историко-политическая среда, композиционная структура документа, устойчивые формулы официального делопроизводства, функции управляющего библиотекой и семантика термина «даруга». Сравнение с другими документами Васифи позволяет выявить преемственность традиций официального делопроизводства Хорасана и Мавераннахра XV–XVI вв.

Ключевые слова: Зайн-ад-Дин Махмуд Васифи, Бадаи ал-вакайи, маншур, библиотека, Насир ал-Хаттат, Тимуриды, Шейбаниды, Хорасан, Мавераннахр, делопроизводство, даруга, источниковедение.

THE PRACTICE OF PALACE LIBRARY ADMINISTRATION IN THE FIFTEENTH AND SIXTEENTH CENTURIES: THE MANSUR IN “BADOYE UL- VAQOE” AS A CASE STUDY

Abstract. The article provides a comprehensive historical and source-critical analysis of the manshur appointing Khoja Nasir al-Khattat as custodian and administrator of the library, as recorded in Zayn ad-Din Mahmud Wasifi's "Bada'i al-Waqayi". It examines the historical-political context, compositional structure of the document, stable formulas of official documentation, the functions of the library administrator, and the semantic scope of the term "darugha". Comparison with other documents composed by Wasifi reveals continuity in the traditions of official documentation in Khorasan and Transoxiana during the fifteenth and sixteenth centuries.

Key words: Zayn ad-Din Mahmud Wasifi, Bada'i al-Waqayi, manshur, library, Nasir al-Khattat, Timurids, Shaybanids, Khorasan, Transoxiana, official documentation, darugha, source studies.

Kirish: XV asr oxiri – XVI asr birinchi yarmi Markaziy Osiyo va Xuroson tarixida keskin siyosiy o'zgarishlar, sulolaviy kurashlar va madaniy markazlarning qayta shakllanishi bilan xarakterlanadi. Temuriylar davlatining zaiflashuvi, Shayboniylar hokimiyatining qaror topishi va Safaviylar davlatining kuchayishi mintaqaning siyosiy xaritasini o'zgartiribgina qolmay, ilm-fan, adabiyot, saroy madaniyati va rasmiy ish yuritish an'alariga ham ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday murakkab tarixiy sharoitda yashab ijod qilgan Zayn ad-Din Mahmud Vosifiy o'z davrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotini bevosita kuzatgan mualliflardan biridir.

Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoe" asari tarixiy, memuar, biografik, adabiy va hujjatshunoslik materiallarini birlashtirgan ko'p qatlamli manbadir. Unda hukmdorlar va saroy amaldorlari, shoirlar, olimlar, savdogarlar, hunarmandlar va oddiy shahar aholisi hayotiga oid ma'lumotlar bilan bir qatorda rasmiy hujjatlar namunalari ham uchraydi. Shu jihatdan asar faqat adabiy yodgorlik emas, balki XV-XVI asrlardagi boshqaruv amaliyoti, mansablar tizimi va hujjat tuzish madaniyatini o'rganishga xizmat qiluvchi muhim tarixiy manbadir.

Asarda keltirilgan Xoja Nosir al-Xattotni kutubxona saqlovchisi etib tayinlash haqidagi manshur alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur hujjat saroy kutubxonasining boshqaruv tartibi, kitob fondini saqlash va nazorat qilish, mas'ul shaxsni tayinlash mezonlari hamda tayinlovni huquqiy jihatdan mustahkamlash usullarini yoritadi. Shu bilan birga, manshur rasmiy hujjat matnining badiiy-rhetorik vositalar bilan uyg'unlashganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotning maqsadi – "Badoye' ul-vaqoe"da keltirilgan kutubxona manshurini tarixiy-manbashunoslik va hujjatshunoslik asosida tahlil qilish, uning tarkibiy tuzilishi, terminologiyasi va rasmiy formulalarini aniqlash hamda Vosifiy tuzgan boshqa hujjatlar bilan qiyoslash orqali davr ish yuritish madaniyatiga oid xulosalar chiqarishdir. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, Vosifiyning tarixiy-biografik muhiti, asarning manbashunoslik xususiyatlari, manshurning mazmuni, kompozitsiyasi, kutubxona boshqaruvchisi vazifalari va "darug'a" terminining semantik doirasi tadqiq etiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi va manbalar tahlili: Vosifiy hayoti va ijodiy merosini ilmiy o'rganishda S. Ayniy, A. N. Boldyrev, V. V. Bartold va boshqa sharqshunos olimlarning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. S. Ayniy Vosifiy shaxsiyati va ijodiy merosiga e'tibor qaratgan dastlabki yirik tadqiqotchilardan biri bo'lsa, A. N. Boldyrev muallifning tarjimai holi, ijtimoiy muhiti va "Badoyi' al-vaqoyi'"ning matnshunoslik masalalarini tizimli ravishda o'rgandi. U asarning tanqidiy matnini tayyorladi va undagi ayrim rasmiy hujjatlarni ilmiy muomalaga kiritdi [6; 7; 16; 17].

A.N. Boldyrev tadqiqotlarida Vosifiy Hirot shahar o'rta tabaqasining vakili, ko'plab ijtimoiy qatlamlar bilan aloqada bo'lgan kuzatuvchan memuarchi sifatida tavsiflanadi. Bu holat "Badoyi' al-vaqoyi'"dagi ma'lumotlarning ijtimoiy doirasini kengaytirgan. Muallif saroy majlislarida ham, savdogar va hunarmandlar muhitida ham ishtirok etganligi sababli asarda rasmiy siyosiy hayot bilan kundalik turmush lavhalari bir-birini to'ldiradi.

V.V. Bartoldning saroy marosimlari va boshqaruv terminologiyasiga bag'ishlangan ishlari manshuridagi "darug'a" atamasini talqin qilishda muhim metodologik asos beradi. Olim keltirgan misollar ushbu terminning faqat hududiy hokim yoki harbiy boshliq ma'nosida emas, balki

muayyan muassasa yoki faoliyat sohasi uchun mas'ul boshqaruvchi ma'nosida ham qo'llanganini ko'rsatadi [4, 388–399].

Mavjud adabiyotlar Vosifiy asarining tarixiy va adabiy ahamiyatini keng yoritgan bo'lsa-da, kutubxona boshqaruviga oid manshurning kompozitsion modeli, boshqaruv funksiyalari va boshqa rasmiy hujjatlar bilan qiyosiy xususiyatlarini yagona tadqiqot doirasida o'rganish zarurati mavjud. Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni qisman to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot tarixiylik, xolislik, tizimlilik va manbaga tanqidiy yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Tarixiy-qiyosiy usul yordamida kutubxona manshuri Vosifiy tomonidan turli davr va hududlarda tuzilgan boshqa rasmiy hujjatlar bilan qiyoslandi. Manbashunoslik tahlili hujjatning kelib chiqishi, mazmuni, mualliflik muhiti va tarixiy axborot imkoniyatlarini aniqlash uchun qo'llanildi. Matniy va strukturaviy tahlil manshurning ichki kompozitsiyasi, tayinlovni asoslash formulalari, murojaat va yakuniy buyruq qismlarini ajratishga imkon berdi. Terminologik tahlil orqali “manshur”, “darug'a”, “kutubxona saqllovchisi” kabi tushunchalarning tarixiy mazmuni baholandi. Shuningdek, rasmiy hujjatdagi ritorik vositalar boshqaruvning huquqiy va ramziy legitimatsiyasi bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

Vosifiyning hayoti va davrning tarixiy-siyosiy muhiti: Zayn ad-Din Mahmud Vosifiy 1485-yilda Hirotida tug'ilgan. Uning yoshlik yillari Temuriylar davlatining siyosiy zaiflashuvi va ichki nizolar kuchaygan davrga to'g'ri keldi. Hirot XV asr oxirida yirik ilmiy va madaniy markaz bo'lib, saroy adabiy muhiti bilan bir qatorda savdogar-hunarmandlar orasida ham faol adabiy hayot mavjud edi. Vosifiy ana shu muhitda ta'lim oldi va shakllandi.

XVI asr boshlarida Shayboniylar Xurosonni egallashi, keyinchalik Safaviylar bilan kurashning kuchayishi mintaqadagi ziyolilar hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 1510-yil Marv jangidan keyin Xurosonning siyosiy vaziyati yanada murakkablashdi. Sunniy Shayboniylar va shia Safaviylar o'rtasidagi qarama-qarshilik siyosiy kurashning mafkuraviy asoslaridan biriga aylandi [8, 144-146].

Vosifiy Xurosonni tark etib Movarounnahrda ko'chdi va Samarqand, Buxoro, Shohruxiya hamda Toshkentda yashadi. U turli davrlarda masjid imomi, muallim, shahzodalar tarbiyachisi, saroy adibi va kotib sifatida faoliyat yuritdi. 1518-yilda Keldi Muhammadxon saroyiga jalb etilishi, keyinchalik Toshkentga ko'chishi uning ijodiy faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi.

Vosifiyning turli siyosiy va madaniy muhitlarda yashagani uning asariga bevosita ta'sir ko'rsatdi. U Temuriylar davrining rivojlangan adabiy va ma'muriy an'analari bilan bilgan holda Shayboniylar saroy muhitida faoliyat yuritdi. Shu sababli uning rasmiy hujjatlari Xuroson va Movarounnahr hujjatchilik an'analari bilan o'zaro davomiylikni kuzatish uchun muhim materialdir.

“Badoye’ ul-vaqoe”ning manbashunoslik xususiyatlari: “Badoye’ al-vaqoyi” an'anaviy tarixiy yilnoma shaklidan farq qiladi. Asarda voqealar qat'iy xronologik tartibda berilmaydi; muallif shaxsiy xotiralar, tarixiy voqealar, adabiy majlislar, mashhur shaxslar bilan uchrashuvlar, she'riy parchalar, xatlar va rasmiy hujjatlarni bir butun matn doirasida birlashtiradi. Muallif-hikoyachining markaziy o'rni asarni memuar janriga yaqinlashtirsa-da, uning janriy tabiati ancha murakkabdir.

Asarning muhim xususiyati tarixiy voqealarning o'rta shahar tabaqasi vakili nigohi bilan yoritilishidir. Vosifiy yuqori martabali saroy doiralari bilan birga bozor ahli, hunarmandlar va savdogarlar hayotini ham kuzatgan. Natijada asarda rasmiy tarixnavislikda kam uchraydigan kundalik hayot manzaralari va ijtimoiy munosabatlar aks etgan [2; 6; 7].

Rasmiy hujjatlarning asar tarkibiga kiritilishi “Badoye’ ul-vaqoe”ning manbashunoslik qiymatini oshiradi. Bunday hujjatlar tayinlov, in'om, boshqaruv va mansab munosabatlarining huquqiy-ramziy shakllarini o'rganishga imkon beradi. Kutubxona boshqaruviga oid manshur ana shunday hujjatlarning eng e'tiborlilaridan biridir.

Kutubxonani boshqarishga oid manshurning mazmuni va tarixiy ahamiyati: Vosifiy keltirgan manshur Xoja Nosir al-Xattotni kutubxona saqllovchisi etib tayinlashga bag'ishlangan. Hujjatning boshlanishida kitoblarni to'plash, asrash va mutolaa qilish ma'rifiy hamda axloqiy qadriyat sifatida talqin etiladi. Hukmdorning kitoblarga bo'lgan qiziqishi kutubxonadagi asarlar sonining ortishi bilan bog'lanadi va bu fondni ishonchli shaxsga topshirish zarurati asoslanadi [2, 412-418].

Xoja Nosir al-Xattot tayinlov uchun tasodifiy tanlangan shaxs emas. Manshurda uning ishonchliligi, axloqiy pokligi, kotiblik mahorati va buyruqlarni sidqidildan bajarishi alohida ta'kidlanadi. Bu fazilatlar kutubxona boshqaruvchisiga qo'yilgan professional va axloqiy talablarni ko'rsatadi. Demak, kitob fondini boshqarish yuqori darajadagi ishonch talab qiladigan saroy vazifasi bo'lgan. Hujjatdan kutubxona saqlovchisining asosiy vazifalarini aniqlash mumkin. U kitoblarni saqlashi, fondning butligini ta'minlashi, hukmdor talab qilgan asarni o'z vaqtida taqdim etishi va kutubxona faoliyati uchun shaxsan mas'ul bo'lishi kerak edi. Shuningdek, boshqa mansabdor shaxslar uning vakolatini tan olishi va faoliyatiga zarur ko'mak ko'rsatishi buyurilgan.

Bu ma'lumotlar saroy kutubxonasini faqat kitoblar saqlanadigan joy sifatida emas, balki muayyan boshqaruv mexanizmiga ega madaniy-ma'muriy muassasa sifatida baholash imkonini beradi. Kutubxona boshqaruvchisining tayinlanishi maxsus hukmdorlik hujjati bilan rasmiylashtirilgani ushbu mansabning siyosiy va madaniy nufuzini ko'rsatadi.

Kutubxona manshurining tuzilishi tahlil qilinganda to'rt asosiy tarkibiy qism ajralib chiqadi. Birinchi qism shartli ravishda muqaddima bo'lib, unda umumiy diniy-axloqiy va siyosiy tamoyil bayon qilinadi. Kitob va bilimning qadri, ularni saqlash zarurati tayinlov qarorining g'oyaviy asosi sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchi qismda mansabga tayinlanayotgan shaxsning munosibligi asoslanadi. Xoja Nosir al-Xattotning xizmatlari, shaxsiy fazilatlar va ishonchliligi ritorik vositalar yordamida ta'riflanadi. Ushbu qism tayinlov qarorining legitimligini kuchaytiradi va hukmdorning tanlovi ma'lum mezonlarga asoslanganini ko'rsatadi.

Uchinchi qism bevosita farmoyish mazmunini ifodalaydi. Unda Xoja Nosir al-Xattot kutubxona uchun mas'ul etib tayinlangani va unga tegishli vakolatlar berilgani e'lon qilinadi. To'rtinchi qismda hukmdor qarindoshlari, amirlar, sadrlar, vazirlar va boshqa mansabdor shaxslarga murojaat qilinib, tayinlovni tan olish, yangi mas'ul shaxsga bo'ysunish va uning faoliyatiga to'sqinlik qilmaslik buyuriladi.

Manshur tilida badiiy tasvir, diniy tushunchalar, mubolag'a va murakkab sintaktik qurilmalar keng qo'llanadi. Bu xususiyatlar o'rta asr rasmiy hujjatchiligida ish yuritish ritorikasi alohida san'at darajasiga ko'tarilganini ko'rsatadi. Ritorika hujjatning huquqiy mazmunini yo'qotmaydi, aksincha, hukmdor hokimiyatining ramziy nufuzini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Vosifiy tuzgan boshqa rasmiy hujjatlar bilan qiyosiy tahlil: Kutubxona manshurini Vosifiy tomonidan Toshkentda tuzilgan boshqa manshur bilan qiyoslash ikki hujjat orasida vaqt va makon tafovuti mavjud bo'lishiga qaramay, ularning umumiy tuzilishi o'xshashligini ko'rsatadi. Birinchi hujjat Hirotda 1507-yildan kech bo'lmagan davrda, ikkinchisi esa Toshkentda 1532/33-yildan keyin tuzilgan deb baholanadi.

Har ikki hujjatda umumiy qoida yoki g'oyaviy asos bayon qilinadi, keyin tayinlanayotgan yoki in'om olayotgan shaxsning munosibligi asoslanadi, so'ng qarorning mazmuni e'lon qilinadi va yakunda mansabdor shaxslarga qaratilgan buyruq formulasi beriladi. Bu o'xshashlik Vosifiyning uzoq yillik faoliyati davomida rasmiy hujjat tuzish haqidagi tasavvurlari barqaror bo'lganini ko'rsatadi.

Shohruxiya ulusining bosh tikuvchisini tayinlash haqidagi nishon ham qiyosiy jihatdan muhimdir. Mazkur hujjatning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati kutubxona manshuriga nisbatan pastroq bo'lgani sababli ritorik qism qisqartirilgan. Biroq asosiy tarkibiy unsurlar – murojaat, tayinlov sababi, nomzod fazilatlar va qaror mazmuni saqlanib qolgan [16, 2-jild, 414-416-betlar].

Qiyosiy tahlil rasmiy hujjat shakli in'om yoki mansab turiga qarab butunlay o'zgarib ketmaganini ko'rsatadi. Asosiy model barqaror bo'lgan, tafovutlar esa hujjatning siyosiy ahamiyati, buyurtmachi mavqei, tayinlanayotgan shaxs va hujjat tuzuvchining ritorik mahoratiga bog'liq holda yuzaga kelgan.

“Darug'a” atamasining tarixiy-semantik tahlili: Kutubxona boshqaruvi masalasini o'rganishda “darug'a” atamasining mazmunini aniqlash muhimdir. V.V. Bartold “Habib as-siyar” ma'lumotlariga tayangan holda Hirotdagi kutubxona boshlig'iga nisbatan ishlatilgan ushbu terminni “kutubxona qo'mondoni” tarzida tarjima qilgan [4, 389]. Biroq Vosifiy asaridagi boshqa misollar terminning semantik doirasi kengroq bo'lganini ko'rsatadi. Asarda “darug'a” Saurondagi madrasa

qurilishiga boshchilik qilgan shaxsga, Badaxshondagi yoqut konlarini boshqarishga mas'ul shaxsga va Tus shahri hokimiga nisbatan qo'llangan. Bu misollarning barchasida umumiy semantik belgi – muayyan hudud, muassasa yoki faoliyat uchun mas'ul boshqaruvchi vazifasi mavjud. Shu sababli kutubxona kontekstida “darug'a”ni faqat harbiy “qo'mondon” sifatida tarjima qilish terminning tarixiy mazmunini toraytiradi. Uni “boshqaruvchi”, “mas'ul rahbar” yoki kontekstga qarab “kutubxona mudiri” tarzida talqin qilish maqsadga muvofiq. Ushbu terminologik kuzatuv o'rta asr boshqaruv tizimida mansab nomlarining funksional mazmuni kontekstga qarab o'zgarib turganini ko'rsatadi.

Ilmiy munozara va tadqiqot natijalari: Kutubxona manshurining tahlili bir qator ilmiy masalalarni ilgari suradi. Birinchidan, saroy kutubxonasi mustaqil boshqaruv elementlariga ega muassasa bo'lgan. Maxsus mas'ul shaxsning hukmdor manshuri bilan tayinlanishi, boshqa mansabdorlarning uning vakolatini tan olishga majbur etilishi kutubxona faoliyatining institutsional xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, kutubxona boshqaruvchisiga qo'yilgan talablar kasbiy mahorat bilan axloqiy ishonchlilikning birligini aks ettiradi. Kitob fondi moddiy va ma'naviy boylik hisoblanganligi sababli uni boshqaruvchi shaxs nafaqat savodli va kotiblik tajribasiga ega, balki hukmdor ishonchini qozongan bo'lishi kerak edi.

Uchinchidan, mansurning kompozitsion modeli Xuroson va Movarounnahr rasmiy hujjatchilik an'analari orasida davomiylik mavjudligini ko'rsatadi. Vosifiyning Hirot va Toshkentda tuzgan hujjatlaridagi strukturaviy o'xshashliklar siyosiy sulolalar almashganiga qaramay, kotiblik va munshiylik maktabining ayrim an'analari saqlanganini taxmin qilishga asos beradi.

To'rtinchidan, rasmiy ritorika hujjatning shunchaki bezagi emas, balki hokimiyat qarorini asoslash vositasi bo'lgan. Muqaddimada umumiy diniy-axloqiy tamoyilning ilgari surilishi, nomzod fazilatlarining batafsil tavsifi va yakuniy buyruq formulasi tayinlovni g'oyaviy, shaxsiy va ma'muriy jihatdan legitimlashtirgan.

Beshinchidan, “Badoyi' al-vaqoyi'” tarkibidagi rasmiy hujjatlar alohida korpus sifatida kompleks o'rganilishi lozim. Ularning diplomatik, paleografik, tekstologik va terminologik tahlili XV-XVI asrlardagi davlat boshqaruvi, mansablar tizimi va hujjat tuzish amaliyoti haqida yangi ilmiy natijalar berishi mumkin.

Xulosa: Zayn ad-Din Mahmud Vosifiyning “Badoye' ul-vaqoe” asarida keltirilgan Xoja Nosir al-Xattotni kutubxona saqlovchisi va boshqaruvchisi etib tayinlash haqidagi manshur XV-XVI asrlar Xuroson va Movarounnahr tarixini o'rganishda muhim yozma manbadir. Hujjat saroy kutubxonasining boshqaruv mexanizmi, kitob fondiga munosabat, mas'ul shaxsni tanlash mezonlari va mansab tayinlashning rasmiy-huquqiy shakllari haqida ma'lumot beradi.

Tadqiqot natijasida manshur to'rt asosiy kompozitsion qismdan iborat ekani aniqlandi: umumiy g'oyaviy muqaddima, nomzodning munosibligini asoslash, tayinlov mazmunini e'lon qilish va mansabdor shaxslarga qaratilgan yakuniy buyruq. Ushbu model Vosifiy tuzgan boshqa hujjatlarda ham turli darajada saqlangan.

Qiyosiy tahlil Xuroson va Movarounnahr rasmiy hujjatchilik madaniyatida ma'lum davomiylik mavjudligini ko'rsatdi. Siyosiy muhit va hujjatning ahamiyatiga qarab ritorik qismlar kengaygan yoki qisqargan bo'lsa-da, asosiy hujjat modeli barqaror qolgan.

“Darug'a” atamasining tahlili uning faqat qo'mondon yoki hududiy hokim emas, balki muayyan muassasa va faoliyat uchun mas'ul boshqaruvchi ma'nosida ham ishlatilganini ko'rsatdi. Kutubxona kontekstida terminni “boshqaruvchi” yoki “kutubxona mudiri” sifatida talqin qilish tarixiy mazmunga yaqinroqdir.

Kelgusida “Badoye' ul-vaqoe” tarkibidagi barcha rasmiy hujjatlarni alohida kataloglashtirish, qo'lyozma nusxalari asosida tekstologik va diplomatik tahlil qilish, ularni Temuriylar va Shayboniylar davrining boshqa manshur, yorliq va nishonlari bilan qiyoslash maqsadga muvofiq. Bunday tadqiqotlar Markaziy Osiyo hujjatchilik tarixi, kutubxonachilik tarixi va boshqaruv madaniyatiga oid ilmiy tasavvurlarni yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдураимов М.А. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVII – первой половине XIX в. Т. 1. Ташкент, 1966.
2. Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков М.: Наука, 1965. – 180 с
3. Алексеев А.К. Политическая история Тукай -Тимуридов. СПб., 2006. 229 с.
4. Бартольд В.В. Церемониал при дворе узбекских ханов в XVII веке. // Сочинения. Т. II. Ч. 2. Москва: Наука, 1964. С. 388-399.
5. Бертельс Е. Э. Навои: Опыт творческой биографии. – М.; Л.: Издательство Академии наук СССР, 1948.
6. Болдырев А. Н. Очерки жизни гератского общества на рубеже XV–XVI вв. // Государственный Эрмитаж. Труды Отдела Востока. – Т. IV. – Л., 1947. – С. 315-42.
7. Болдырев А. Н. Зайнабдин Васифи, таджикский писатель XVI в.: Опыт творческой биографии. – 2-е изд., испр. и доп. – Душанбе: Адиб, 1989, Болдырев А. Н. Зайнабдин Васифи, таджикский писатель XVI в.: Опыт творческой биографии. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1957.
8. Чалисова Н. Ю. Персидская классическая поэтика о конвенциях описания красоты // Памятники литературной мысли Востока. – Москва: ИМЛИ РАН, 2012.
9. Диловар-хожа. Перевод «Бадое ул-вакое» на староузбекский язык: рукопись. – Ташкент: Институт востоковедения Академии наук Республики Узбекистан. – Рукопись № 3944/1.
10. Комилов Н. Хорезмская школа перевода (проблемы типологии и сопоставительное исследование истории перевода в XIX веке): дис. ... д-ра филол. наук. – Ташкент: ТашГУ, 1987. – 374 с.
11. Ўзбек поэзиясининг антологияси. – Тошкент, 1948.
12. Огахий. «Бадое ул-вакое» таржимаси: қўлёзма. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. – Қўлёзма № 2628.
13. Пигулевская Н. В., Якубовский А. Ю., Петрушевский И. П. и др. История Ирана с древнейших времен до конца XVIII века. – Ленинград: Издательство Ленинградского университета, 1958.
14. Subtelny M. E. A Taste for the Intricate: The Persian Poetry of the Late Timurid Period // Zeitschrift der Deutschen Morgenländischen Gesellschaft. – 1986. – Bd. 136. – H. 1. – S. 56-79.
15. Васифи Зайниддин. Бадое ул-вакоеъ. Ж. 1-2 / Матни интиқодӣ, муқаддима ва изоҳоти А. Н. Болдырев.
16. Васифи Зайн ад-Дин Махмуд. Бадаи ал-вакаи (Удивительные события) / Критический текст, введение и указатели А. Н. Болдырева; отв. ред. К. Е. Бертельс. Т. 1. – Москва: Издательство восточной литературы, 1961; Т. 2. – Москва: Издательство восточной литературы, 1962.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatarga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].